

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 11 - fevral

50-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi
“Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini
yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari
to'g'risida”gi 52-sonli qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 52-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan sharoiti og'ir oilalar va fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ovul va mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 52-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) Quyidagilar:

1) Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi yig'ilishining bayoniga asosan viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri va Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxiatosh, Taxtako'pir, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay tumanlariga (keyingi o'rinlarda — shimoliy tumanlar) birlashtirilganligi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasidagi barcha ovul va qishloqlardagi aholi turar joylari hamda ichki yo'llar holati bo'yicha o'tkazilgan xatlovda og'ir turmush

sharoitidagi oilalarga tegishli 21 094 ta uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda 709 ta yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish, shuningdek, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga biriktirilmagan Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlaridagi (keyingi o'rinlarda — janubiy tumanlar) 2 ming kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish talab etilishi aniqlanganligi;

3) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-sentyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qulay biznes muhitini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmalar bilan ta'minlanganlik darajasini yanada yaxshilash orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 500-son qarorida janubiy tumanlardagi 123 km tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish uchun 2023-yilda 15 mlrd so'm mablag' ajratish ko'zda tutilganligi;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-471-son qarorida janubiy tumanlardagi ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash uchun 2023-yilda 12 mlrd so'm mablag' ajratish nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Moliya va iqtisodiyot vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining xatlov jarayonida aniqlangan og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli 21 094 ta uyning tom qismini ta'mirlash (yopish) va 709 ta yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish, shuningdek, janubiy tumanlardagi 2 ming kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlarini markazlashtirilgan tartibda amalga oshirish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

v) Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri va shimoliy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish ishlarining yig'ma parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish ishlarining yig'ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

g) Mazkur qaror doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bo'yicha buyurtmachi etib:

Nukus shahri va shimoliy tumanlardagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) va avariya holatidagi uylarni

yangidan qurish ishlari bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK;

janubiy tumanlardagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish ishlari bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» IK DUK;

janubiy tumanlardagi 2 ming kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari bo'yicha - Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlari hokimliklarining Obodonlashtirish boshqarmalari belgilanganligi;

d) Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni qisqa muddatlarda yakunlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» IK DUKga pudratchi va loyiha tashkilotlarini, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarni maxsus axborot portalida tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon joylashtirmasdan, xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlash vakolati berilganligi;

e) mazkur qarorga 1-ilovada nazarda tutilgan og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish ishlari - Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari, homiylik xayriyalari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

ushbu qarorga 2-ilovada nazarda tutilgan og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish ishlari - 2023-yil uchun Davlat budjeti parametrlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari uchun nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan;

janubiy tumanlardagi 2 ming kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari - Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilab quyilganligi;

j) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bir oy muddatda mazkur qarorga 1-ilova bilan tasdiqlangan yig'ma parametrlarga muvofiq mablag'lar ajratilishini hamda qurilish materiallari zaxirasi yaratilishini ta'minlash topshirilganligi;

z) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga mazkur qarorga 1-ilovada nazarda tutilgan uy-joylarning manzilli ro'yxatini shakllantirish va viloyatlar va

Toshkent shahar hokimliklariga taqdim etilishini ta'minlash topshirilganligi;

i) Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'n besh kun muddatda janubiy tumanlardagi 2 ming kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari uchun Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hisobidan 20 mlrd so'm mablag' ajratilishini ta'minlash topshirilganligi;

k) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga mazkur qarorda nazarda tutilgan uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish hamda tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini va qurilish-montaj ishlari sifatli bajarilishi ustidan tizimli davlat nazorati amalga oshirilishini ta'minlash topshirilganligi;

l) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlariga mahalliy hokimliklar hamda mas'ul davlat idoralari bilan birgalikda:

tom qismi ta'mirlanadigan (yopiladigan) va yashash uchun yaroqsiz uy-joylarning ro'yxatini shakllantirish faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish hamda mazkur sohada byurokratiya, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarning oldini olishga qaratilgan aniq choralarni amalga oshirish;

uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish, shuningdek, tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

mazkur qaror doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish, shuningdek, dolzarb muammolar hal etilayotganligi yuzasidan aholiga batafsil tushuntirish va tashviqot ishlarini tashkil etish tavsiya etilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri va shimoliy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish ishlarining yig'ma parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish ishlarining yig'ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari

E.Atashov Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tumanlar va Nukus shahar hokimliklari bilan birgalikda belgilangan tartibda:

mazkur qaror bilan 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan Nukus shahri va tumanlardagi og'ir turmush sharoitidagi 21 094 ta oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi 709 ta uylarni yangidan qurish ishlarining yig'ma parametrlari doirasida qisqa muddatda uylarning manzilli ro'yxatini shakllatirib, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hamda Vazirlar Kengashining yagona buyurtmachi xizmati Injiniring kompaniyasi DUKga taqdim etilishini;

Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlari Obodonlashtirish boshqarmalari bilan 2 ming kilometr to'proq yo'llarga qum-shag'al aralashmasini yotqizish ishlari manzilli ro'yxatlarining shakllantirilishini ta'minlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yagona buyurtmachi xizmati Injiniring kompaniyasi DUK ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni qisqa muddatlarda yakunlash maqsadida berilgan vakolatlarni rahbarlikka olib pudratchi va loyiha tashkilotlarini, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarni maxsus axborot portalida tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon joylashtirmasdan, xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanishini va obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlab ekspertiza xulosalarini olish, pudrat tashkilotlarini belgilash va obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlarining sifatli bajarilishini ta'minlash cjralarini ko'rsin.

6. Moliya vazirligi ushbu qaror bilan 1-ilovada tasdiqlangan yig'ma parametrlarga muvofiq zarur mablag'lar miqdorini Vazirlar Kengashining yagona buyurtmachi xizmati Injiniring kompaniyasi DUKga belgilangan tartibda ajratilishini ta'minlasin.

7. Qurilish vazirligi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi mazkur qarorda nazarda tutilgan uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish hamda tuproq yo'llarga qum-shag'al yotqizish ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini hamda qurilish-montaj va ta'mirlash ishlarining sifatli bajarilishi ustidan tizimli nazorat ishlari amalga oshirilishini ta'minlasin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov tumanlar va Nukus shahar hokimlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarorining 11-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan hamda ushbu qaror bilan belgilangan tadbirlarning sifatli va muddatida bajarilishini va amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aholiga yetkazib borilishini ta'minlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari tumanlar va

Nukus shahar Kengashlari huzurida jamoatchilik nazorati guruhini tashkil etish bo'yicha taklif kiritilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
50-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri va shimoliy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uy-joylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish ishlarining YIG'MA PARAMETRLARI

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Mahallalar soni	Xonadonlar soni	Ta'mirlanadigan uy-joylar soni	Shundan		Talab etiladigan mablag' (mlrd so'm) *	Biriktirilgan hudud
					tom qismi ta'mirlanadigan (yopiladigan) uy-joylar soni	qaytadan quriladigan uy-joylar soni		
1.	Nukus shahri	64	73 398	2 926	2 894	32	40,2	Toshkent shahri
2.	Bo'zatov tumani	5	3 363	1 159	1 110	49	16,3	Farg'ona viloyati
3.	Kegeyli tumani	16	13 702	924	920	4	13,2	Andijon viloyati
4.	Qonliko'l tumani	11	9 023	796	340	10	12,6	Sirdaryo viloyati
					434	12	16,0 **	Qoraqalpog'iston Respublikasi
5.	Qorao'zak tumani	13	9 073	713	706	7	9,8	Namangan viloyati
6.	Qo'ng'iro't tumani	39	27 526	934	889	45	14,1	Qashqadaryo viloyati
7.	Mo'ynoq tumani	12	5 329	793	651	142	14,6	Toshkent viloyati
8.	Nukus tumani	10	10 659	970	884	86	14,7	Samarqand viloyati
9.	Taxiatosh tumani	13	14 326	667	637	30	10,2	Surxondaryo viloyati
10.	Taxtako'pir tumani	17	7 083	1 586	771	40	12,8	Jizzax viloyati
					728	47	13,0 **	Qoraqalpog'iston Respublikasi
11.	Chimboy tumani	22	20 695	964	918	46	15,0	Navoiy viloyati

12.	Shumanay tumani	13	8 525	974	329	20	5,5	Xorazm viloyati
					599	26	9,0 **	Qoraqalpog'iston Respublikasi
13.	Xo'jayli tumani	26	21 413	926	899	27	14,6	Buxoro viloyati
Jami		261	224 115	14 332	13 709	623	231,6	

Izoh:

* Loyiha-smeta hujjatlari va nuqson dalolatnomalari asosida aniqlashtiriladi.

** Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
50-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy tumanlaridagi og'ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uylarning tom qismini ta'mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uylarni yangidan qurish ishlarining

YIG'MA PARAMETRLARI

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Mahallalar soni	Xonadonlar soni	Ta'mirlanadigan uy-joylar soni	Shundan		Talab etiladigan mablag' (mlrd so'm) *
					tom qismi ta'mirlanadigan (yopiladigan) uy-joylar soni	qaytadan quriladigan uy-joylar soni	
1.	Amudaryo tumani	49	36 065	1 868	1 856	12	26,0
2.	Beruniy tumani	40	38 322	1 189	1 171	18	21,6
3.	To'rtko'l tumani	37	39 648	2 521	2 488	33	36,8
4.	Ellikqal'a tumani	37	28 905	1 893	1 870	23	27,9
Jami		163	142 940	7 471	7 385	86	112,3

Izoh: * Loyiha-smeta hujjatlari va nuqson dalolatnomalari asosida aniqlashtiriladi.